

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

SHAVKAT RAHMONNING TURKIYLAR SHE'RI

Dildora Oxbutayeva

"Nurli maskan" internati ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Serqirra ijodkorlar talaygina ammo ular orasidan bugun biz Shavkat Rahmon she'riyati haqida so'z yuritamiz. Shoир nihoyatda keng fikrlovchi, hurlikka intilgan oshiq edi. Bugun uning kechinmalari haqida biz she'rlaridan so'raymiz.

Kalit so'zlar: Saylama, turkiy xalqlar, ayovsiz janglar, motam, qullar,

XX asr o'zbek she'riyatining o'ziga xos vakili, ulkan millatsevar shoир Shavkat Rahmon 1950-yilning 12-centabrida O'sh shahrida tug'ilgan. Shoирning otasi Rahmonberdi asli Shahrixon tumanidagi Saroy qishlog'idan bo'lib, taqdirning taqozosi bilan O'sh shahriga kelib, muqim turib qolgandi. Onasi Oftobxon ham shahrixonlik edi. Shavkat Rahmon qisqa umr kechirdi. U 1996-yilning 2-oktabrida uzoq davom etgan og'ir kasallikdan vafot etdi. U Toshkent shahridagi Yalang'och qabristoniga dafn etilgan. Vafotidan so'ng shoирning «Saylanma»si (1997) nashr qilindi.

Qilichin tashladi beklar nihoyat,
bosildi tulporlar,
tig'lar suroni,
urhoga o'rgangan tillarda oyat,
turkiylar tanidi komil Xudoni.

Alloh yo'lida ko'p kurashgan turkiy xalqlar hikoyasi shu she'rda aks etgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Tarixdan ma'lummi Turkiy xalqlar ko'plab g'ayridin hudularni bosib olib islom urug'ini ekishga muvoffaq bo'lishgan. Bunda xalqlarimiz necha qon-u necha jondan ayrılgan bo'lсалarda Xudoni taniganlar.

Qilichlar zangladi...

falokat hushyor,
turkiylar quvvatin berdi yerlarga.

Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov
komillik qidirgan jasur erlarga.

Azal azladan ozor berib majburan boshi quyi tutilgan Turkiy xalqlar chekkan ozorlar shoир yuragini qattiq ozorlar edi. U millatni uyg'otish umidada bu misralarni yozadi.

Ilvasin yigitlar,
bobur yigitlar,
sajdaga bosh qo'ydi yovga ters qarab,
g'ullarni kemirib yig'ladi itlar,
buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab.

Turkda bosh qolmadi...

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

qolmadi dovlar,

xotin-xalaj qoldi motam ko'tarib,

«Bizga tik qarama», — buyurdi yovlar,

yovlarga ters qarab yashadi bari.

Shoir qaramlik va qullik, quyi solingen boshlar dardini misralari bilan olib chiqishga uringan. Ayovsiz janglarda ayovzis qirib tashlangan mard o'g'lonlar, yurti va dinidan aslo voz kechmadi.

Talandi samoviy tulpor uyuri,

talandi zarlari,

zeb-u zabari,

«Ters qarab o'ling», — deb yovlar buyurdi,

yovlarga ters qarab jon berdi bari.

Lahadga kirdilar o'zlarin qarg'ab,

qolmadi arabiy,

turkiy xalqlari.

«Tug'ingiz, — dedi yov, — teskari qarab»,

yovlarga ters qarab tug'ildi bari.

Tug'ildi,

tug'ildi,

tug'ildi qullar,

qirqida qirqilgan — imdodga muhtoj,

yovlarga ters qarab itlarday hurar,

bir-biriga dushman,

bir-biridan koj.

Jo'mardlar qirilgan Turonzaminda

do'zaxiy tajriba pallasin ko'rdim:

eshshak suvrati bor qay bir qavmda,

qay birida to'ng'iz kallasin ko'rdim.

Bu holda buvaklar bo'g'ilib o'lar,

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

qul Bilol ezilib yig'lar falakda...

O'zlarin yondirar borliqdan to'ygan

Badaxshon la'liday asl malaklar.

Mo'minlar besh bora Allojni eslar

sajdaga bosh qo'yib jallod toshiga.

O'grilib sal ortga qarayin desa,

boshiga urarlar,

faqat boshiga.

Bormi er yigitlar,

bormi er qizlar,

bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,

bormi bul tufroqda o'zligin izlab,

osmon-u falakka yetgan bolalar.

Turkiy xalqlarda faqat egilgan boshlar qolganidan, o'zligidan bexabar qullar tug'ilayotganidan yuragi yonib, ko'ksi pora-pora bo'ladi. Murosasiz shoir bu holat bilan kelisholmaydi, millatni uyg'otishni istaydi, shu maqsadda achchiq so'zlar aytadi:

Bor bo'lsa,

alarga yetkarib qo'ying,

bir boshga bir o'lim demagan ermas,

shahidlar o'lmaydi,

bir qarab tuying:

Yovga ters qaragan musulmon emas!

Shavkat Rahmon turkiylar tomirida azal--azaldan jo'sh urib turgan erk qoni keyingi asrlarga kelib to'ng'ib qolganidan ichtirobga tushadi, endi esa bu muz qotgan qonni faqat keskir so'zgina yana-tag'in vulqonday qaynatishiga umid bog'laydi. Shundanmi, she'rdan she'rga so'zlarini qayrab boraveradi.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

Shavkat Rahmon turkiylar tomirida azal--azaldan jo'sh urib turgan erk qoni keyingi asrlarga kelib to'ng'ib qolganidan iztirobga tushadi, endi esa bu muz qotgan qonni faqat keskir so'zgina yana-tag'in vulqonday qaynatishiga umid bog'laydi. Balki shu hislat sabab shoir vatan uchun, erk uchun kurashishni har bir she'rlarida singdirib borgan. Shoit so'zlar orqali yuragimizga kirib keladigan misralar bitdi. Turkiylar she'rini o'qigan har bir Turon farzandi Vataniga bo'lgan muhabbat va g'urur hissini tuyadi. Zero bizning bugungi hurligimiz, ariqlar to'la vatan va iymon uchun olib borilgan kurash qonlariga qurilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/shavkat-rahmon-degan-bir-ojar-shoir/>
2. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/asqar-mahkam-adabiyot-ibodati-shoir-shavkat-rahmon-hayoti-va-ijodiga-chizgilar>
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shavkat-rahmon-sherlar-1.html>
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shavkat-rahmon-sherlar.html>
5. <https://azkurs.org/gap-boiaklari-v2.html?page=6>